

## TOG'LARGA TARMASHGAN BULUTLAR

Shohrux Mirzo suyukli malikasi Gavharshod begimga atab Hirotning ko'krakdor joyiga oq marmardan uch oshiyonlik qasr qurdirgan. Qasr atrofidagi bag'ri keng bog'da sarvlar, baland bo'yli va mayda bargli lisonut-tayr<sup>1</sup> va sanobar daraxtlari saf tortgan. Jiydaga o'xshagan kumushrang bargli bu azim daraxtlar quyoshda nuqraday oqish bo'lib ko'rinadi va oq marmar qasrga juda mos keladi. Shuning uchun bu boqqa Oydinbog' — Bog'i Safed deb nom berganlar.

Qasrning yuqori qavatidagi naqshinkor ayvondan qorli Iskalja tog'lari ko'rinib turadi.

Ayvonda kitob o'qib o'ltirgan Gavharshod begim goho sahifalardan ko'zini olib, o'sha tog'lar atrofida o'ralashadigan bulutlarga o'ychan tikiladi. Baland tog' tizmasi ustidan oshib o'tolmaydigan og'ir qora bulutlar cho'qqilar boshiga shamol, bo'ron keltirishi, do'l yog'dirishi begimning qo'lidagi Yazdiy «Zafarnoma»sining tahlikali voqealariga o'xshab ketadi.

Gavharshod begim Amir Temur xonadoniga kelin bo'lib tushgandan buyon mavlono Yazdiy qalamga olgan shiddatli tarixiy voqealarning naq ichida yurgan, iftixor qilsa arzigulik mas'ud kunlarni ham ko'rgan, izzitirob va mashaqqat bilan o'tgan damlarni ham boshdan kechirgan.

Shuning uchun kitobda qisqacha yozib ketilgan voqealar ham begimning xotirasida bir dunyo his-tuyg'ular uyg'otadi, unutilmas tafsilotlar xayolida qayta tirilganday bo'ladi.

Yazdiy Shohrux Mirzoning ilk uylanish to'yi Samarqandning Bog'i Bihishtida bo'lganini birgina jumlada aytib o'tibdi.

Shu birgina jumla Gavharshod begimning ko'zi oldida chindan ham jannatga o'xshaydigan Bog'i Bihishtni gavdalantiradi. Navro'z kunlarida shu bog'da boshiga oq harir ro'mol yopib, Sohibqiron qaynotasiga kelinsalom qilganlarini begim hayajon bilan eslaydi.

O'sha kuni u Amir Temurni birinchi marta yaqinginadan ko'rdi. Uning otalarcha mehribon tovush bilan aytgan so'zlarini eshitdi:

— Bizning xonadonga qo'ygan poyi qadamingiz qutlug' bo'lsin, bolam!

Salobatli nuroniy otaning «bolam!» degan so'zi haligacha Gavharshod begimning qulog'iga eshilib turganday bo'ladi.

O'sha kuni Sohibqiron qaynotasi unga yirik-yirik la'llar qadalgan bir juft oltin sirg'a in'om qildi.

Qaynonasi Bibixonim bu sirg'alarni kelinining qulog'iga taqib qo'yar ekan:

— Bu in'omning teran ma'nosi bor, — dedi. — Endi hamisha xonadon sohibining gapiga quloq solgaysiz, aytganlarini so'zsiz ado etgaysiz!

— Jonim bilan, hazrat onajon! — deb shivirladi kelin.

Lekin xonadon egasining irodasiga bo'ysunib yashash oson kechmadi. Mudom tog'lar atrofida o'ralashgan bulutlarning shamol-bo'ronlarini eslatuvchi urush-yurishlarga chidash, ichki-tashqi nizolarning girdoblaridan suzib o'tish juda qiyin bo'ldi. To'g'ri, begimning toleyiga Shohrux Mirzo faqat qilich chopadigan bahodir yigit emas, balki madrasa ko'rgan, kitobni sevadigan, oilaga astoydil mehr qo'ygan fozil inson bo'lib chiqdi. U bilan birga bo'lgan kunlarida Gavharshod begim o'zini baxtiyor his qiladi.

Ammo, bunday kunlar ham juda kamdan kam bo'ladi. Chunki Shohrux Mirzo Sohibqiron otasining uch yillik, besh yillik, yetti yillik yurishlarida minglab navkarlarga bosh bo'lib, ko'p vaqt oiladan yiroqlarda yurdi.

Begimning qo'lidagi kitobda bitilganidek, Sheroz shahri atrofidagi bog'ko'chalarda Shohmansur degan g'anim to'rt ming otliq askar bilan pistirmadan chiqib, Amir Temurga to'satdan hujum qiladi.

Bu xatarli voqeaning tafsilotlarini begim Shohrux Mirzoning o'zidan eshitgan.

Navro'z arafasi ekan, mevali daraxtlar qiyg'os gullagan. Amir Temurning o'ttiz ming kishilik qo'shini mevazorlarni toptamaslik uchun bog'ko'chalarda bo'linib-bo'linib yo'l bosmoqda ekan.

Shohmansur shu atrofdagi pastqam bir joydan minglab qilich yalang'ochlagan suvoriylari bilan otilib chiqadi. Bog'ko'chaning torroq joyida Amir Temurni o'rtaga olib borayotgan yuztacha qo'riqchi askarlarni urib-yiqitib, sarkardaning o'ziga yetib boradi. Darg'azab g'animning qilichi Amir Temurning qalqoniga bir emas, ikki marta uriladi. Uchinchi qilich zarbasini Amir Temur chap qo'lda tutgan o'z qilichi bilan qaytaradi. Lekin Shohmansurning navkarlari ham qilich yalang'ochlab, Sohibqironga yaqinlashib bormoqda edilar.

Buni ko'rgan Shohrux Mirzo o'z yigitlari bilan bog'ko'cha devorlari ustidan ot sakratib o'tib, himoyaga yetib keldi. Shohmansur to'rtinchi marta qilich ko'targan paytda Shohrux unga orqa tomondan yetib borib, bo'yniga shamshir urdi-yu, otdan yiqitdi. Shohruxning navkarlari Shohmansurning Amir Temur hamla qilib kelayotgan askarlari yo'lini to'sdilar. Shohmansurning yerga yiqilganini ko'rgan g'anim askarlari otlarini orqaga burib, tumtaraqay bo'lib qochdi. Shu tarzda dahshatli bir suiqasddan omon qolgan Amir Temur kenja o'g'lini bag'riga bosib, tasanno aytdi.

Toshkent yaqinidagi eski Binokent qal'asi yangidan qurib bitirilganda otasi Shohruxning o'sha jasoratini taqdirlab, bu joyga Shohruxiya deb nom qo'ydi.

Anqara yaqinida bo'lgan hayot-mamot janglarida ham Shohrux o'z qo'shini bilan yov lashkarining markazini sindirib o'tib, Yildirim Boyazid turgan baland tepalikka birinchilar qatori yetib bordi. Qurshovda qolishini sezgan Rum qaysari tepalikning orqa tomonidan tushib qochishga majbur bo'ldi. O'sha tomonda pistirmada turgan Mahmud Sulton o'z askarlari bilan Yildirim Boyazidni quvib yetib, asir oldi.

Shohruxning bu ulkan jangda ko'rsatgan bahodirligi uchun Sohibqiron otasi unga sharqiy va g'arbiy viloyatlarning qoq belida turgan Xuroson o'lkasini inoyat qildi.

Shu birgina jumla Gavharshod begimning ko‘zi oldida chindan ham jannatga o‘xshaydigan Bog‘i Bihishtni gavdalantiradi. Navro‘z kunlarida shu bog‘da boshiga oq harir ro‘mol yopib, Sohibqiron qaynotasiga kelinsalom qilganlarini begim hayajon bilan eslaydi.

O‘sha kuni u Amir Temurni birinchi marta yaqinginadan ko‘rdi. Uning otalarcha mehribon tovush bilan aytgan so‘zlarini eshitdi:

— Bizning xonadonga qo‘ygan poyi qadamingiz qutlug‘ bo‘lsin, bolam!

Salobatli nuroniy otaning «bolam!» degan so‘zi haligacha Gavharshod begimning qulog‘iga eshilib turganday bo‘ladi.

O‘sha kuni Sohibqiron qaynotasi unga yirik-yirik la‘llar qadalgan bir juft oltin sirg‘a in‘om qildi.

Qaynonasi Bibixonim bu sirg‘alarni kelinining qulog‘iga taqib qo‘yar ekan:

— Bu in‘omning teran ma‘nosi bor, — dedi. — Endi hamisha xonadon sohibining gapiga quloq solgaysiz, aytganlarini so‘zsiz ado etgaysiz!

— Jonim bilan, hazrat onajon! — deb shivirladi kelin.

Lekin xonadon egasining irodasiga bo‘ysunib yashash oson kechmadi. Mudom tog‘lar atrofida o‘ralashgan bulutlarning shamol-bo‘ronlarini eslatuvchi urush-yurishlarga chidash, ichki-tashqi nizolarning girdoblaridan suzib o‘tish juda qiyin bo‘ldi. To‘g‘ri, begimning toleyiga Shohrux Mirzo faqat qilich chopadigan bahodir yigit emas, balki madrasa ko‘rgan, kitobni sevadigan, oilaga astoydil mehr qo‘ygan fozil inson bo‘lib chiqdi. U bilan birga bo‘lgan kunlarida Gavharshod begim o‘zini baxtiyor his qiladi.

Ammo, bunday kunlar ham juda kamdan kam bo‘ladi. Chunki Shohrux Mirzo Sohibqiron otasining uch yillik, besh yillik, yetti yillik yurishlarida minglab navkarlarga bosh bo‘lib, ko‘p vaqt oiladan yiroqlarda yurdi.

Begimning qo‘lidagi kitobda bitilganidek, Sheroz shahri atrofidagi bog‘ko‘chalarda Shohmansur degan g‘anim to‘rt ming otliq askar bilan pistirmadan chiqib, Amir Temurga to‘satdan hujum qiladi.

Bu xatarli voqeaning tafsilotlarini begim Shohrux Mirzoning o'zidan eshitgan.

Navro'z arafasi ekan, mevali daraxtlar qiyg'os gullagan. Amir Temurning o'ttiz ming kishilik qo'shini mevazorlarni toptamaslik uchun bog'ko'chalarda bo'linib-bo'linib yo'l bosmoqda ekan.

Shohmansur shu atrofdagi pastqam bir joydan minglab qilich yalang'ochlagan suvoriylari bilan otilib chiqadi. Bog'ko'chaning torroq joyida Amir Temurni o'rtaga olib borayotgan yuztacha qo'riqchi askarlarni urib-yiqitib, sarkardaning o'ziga yetib boradi. Darg'azab g'animning qilichi Amir Temurning qalqoniga bir emas, ikki marta uriladi. Uchinchi qilich zarbasini Amir Temur chap qo'lda tutgan o'z qilichi bilan qaytaradi. Lekin Shohmansurning navkarlari ham qilich yalang'ochlab, Sohibqironga yaqinlashib bormoqda edilar.

Buni ko'rgan Shohrux Mirzo o'z yigitlari bilan bog'ko'cha devorlari ustidan ot sakratib o'tib, himoyaga yetib keldi. Shohmansur to'rtinchi marta qilich ko'targan paytda Shohrux unga orqa tomondan yetib borib, bo'yning shamshir urdi-yu, otdan yiqitdi. Shohruxning navkarlari Shohmansurning Amir Temur hamla qilib kelayotgan askarlari yo'lini to'sdilar. Shohmansurning yerga yiqilganini ko'rgan g'anim askarlari otlarini orqaga burib, tumtaraqay bo'lib qochdi. Shu tarzda dahshatli bir suiqasddan omon qolgan Amir Temur kenja o'g'lini bag'riga bosib, tasanno aytdi.

Toshkent yaqinidagi eski Binokent qal'asi yangidan qurib bitirilganda otasi Shohruxning o'sha jasoratini taqdirlab, bu joyga Shohruxiya deb nom qo'ydi.

Anqara yaqinida bo'lgan hayot-mamot janrlarida ham Shohrux o'z qo'shini bilan yov lashkarining markazini sindirib o'tib, Yildirim Boyazid turgan baland tepalikka birinchilar qatori yetib bordi. Qurshovda qolishini sezgan Rum qaysari tepalikning orqa tomonidan tushib qochishga majbur bo'ldi. O'sha tomonda pistirmada turgan Mahmud Sulton o'z askarlari bilan Yildirim Boyazidni quvib yetib, asir oldi.

Shohruxning bu ulkan jangda ko'rsatgan bahodirligi uchun Sohibqiron otasi unga sharqiy va g'arbiy viloyatlarning qoq belida turgan Xuroson o'lkasini inoyat qildi.

Gavharshod begim «Zafarnoma» sahifalarida mana shu hodisalarning ta'rifini o'qiganda o'z umr yo'ldoshidan astoydil iftixor qilib qo'ydi. U Shohrux Mirzoni Amir Temurga munosib o'g'il deb hisoblardi.

Sohibqironning katta o'g'illari janglarda halok bo'lgan, o'rtancha o'g'il Mironshoh Ozarbayjonda gunoh ishlar qilib, hokimiyatdan chetlatilgan edi. «Endi Sohibqironning ishongan vorisi Shohrux Mirzo bo'lur» degan so'zlarni Gavharshod begim ko'p odamlardan eshitardi.

Biroq vorislarning makkor dushmanlari bo'larkan. Xo'ja Heraviy degan kekxa imom xatib Hirotning jome masjidida o'qigan xutbalarida Amir Temurni birinchi o'ringa qo'yib ulug'lagan bo'lsa ham, Shohruxning Hirotda obodonchilikka katta e'tibor berayotgani, bog'lar barpo etgani, madrasa qurdirayotganini mislsiz zo'r bunyodkorlik deb maqtaydi. Xo'ja Heraviy bilan azaldan nizo qilib yurgan Xo'ja Ahmad Tusiy nomli devonbegi buni Samarqandga chappa qilib yetkazadi. Go'yo Xo'ja Heraviy xutba o'qiganda Shohruxni doimo otasidan baland qo'yarmish. Uning maqtoviga uchgan Shohrux Xurosonda mustaqil davlat tuzib, otasining itoatidan chiqishi mumkin emish... Shu gaplar ta'sirida kekxa xatib Xo'ja Heraviy Hirotdan surgun bo'lib, Turkistondan nari Sabron cho'llariga ko'chirma qilindi. Uning yaqinlaridan yana bir qanchasi Hirotdan badarg'a bo'ldi. Shohruxni otasi:

— Minba'd bunday xo'jalarning qutqusiga uchmagin! — deb ogohlantirdi.

Lekin Shohrux Xo'ja Ahmad Tusiy kabi makkor xushomadgo'ylar pashshadan fil yasab, oraga ataylab g'ubor solmoqchi bo'lganini ayta boshlaganda otasi uning so'zini kesdi:

— Hirotni qo'rg'on bilan o'rab olmoqchi emishsen! Men qo'rg'on atrofidagi chohga tuproq soldirib tekislatgan edim. Uni qaytadan qazdirib, suv to'ldirmoqchi bo'libsen!

— Hazrat otajon, yozda afg'on shamoli Hirotda mudom chang-to'zon keltirarkan, ko'z ochirmay qo'yarkan. Qo'rg'on bilan suv ana shu chang-to'zonga qarshi bir chora!

— Heraviyga o'xshaganlar bu bahona bilan seni chalg'itgan. Ahmad Tusiy ularni so'roq qilib, ayblarini bo'yinlariga qo'ymishdir. Bir guruh fitnachilar Hirotni bizdan ajratib olish

uchun atrofiga choh qazdirib, qo'rg'on ko'tarmoqchi ekan. Sen yoshlik qilib, ularning gapiga ishonib o'ltiribsen!

— Hazrat otajon, Ahmad Tusiyning gapiga ham ishonib bo'lmagay! Men iltijo qilurmen. Hirotga boshqa xolis taftishchilar yuborishingizni o'tinib so'raymen!

— Bitta Hirotni necha bor taftish qilaylik? Mening boshqa ishim yo'qmi? Xitoy yurishiga tayyorgarlik ketayotganidan xabaring bormi?

—Xabarim bor, lekin...

— Xabaring bo'lsa, gap tamom. Heraviylarga qarshi qattiq turishga o'rgan!

Qat'iy buyruq tarzida aytilgan so'nggi gapni Shohrux Mirzo ta'zim bilan qabul qildi. Lekin ko'ngliga: «Men Xo'ja Ahmad Tusiya o'xshagan ig'vogarlariga ham qarshi turgaymen!» degan niyatni tugdi.

Shundan keyin Sohibqiron otaning butun xayoli Xitoy yurishi bilan band bo'ldi.

Yetti yillik yurishdan so'ng loaqal biror yil dam olmasdan besh oy o'tar-o'tmas yana Xitoyga yurish boshlash el-ulusga ham, xususan, sog'lig'ini ancha oldirib qo'ygan Sohibqironning o'ziga ham juda og'ir tushishini Shohrux Mirzo ich-ichidan sezar, lekin otasini bu niyatidan qaytarishga kuchi yetmas, faqat dardini Gavharshod begimga aytardi:

— Otam ancha kasalmand. Yoshi yetmishga yaqinlashdi. Shu ahvolda Xitoyday ulkan mamlakatga yurish qilish... Xushomadgo'ylar u kishiga: «Hali ham bahodir yigitdaysiz, Xitoy yurishidan yana bir olamshumul g'alaba bilan qaytishingiz aniq!» dermishlar... Men otamga to'y paytida yotig'i bilan aytdim. «Hazratim, biror yil dam olsangiz yaxshi bo'larmidi?» deb ko'rdim. Gapim yoqmadi. «Charchagan bo'lsang, mayli, sen dam ol, Xitoyga men o'zim qo'shin tortaman!» dedilar. Ne qilay? Mening bu yurishga tarafdor emasligimni otamga xufiyalar ham yetkazgan bo'lsa kerak. Xitoy yurishidan oldin bo'lgan mashvaratga meni taklif qilmadilar. Shundan sezdimki, xushomadgo'ylar bilan hovliqma beklarning so'zi o'tgan, bizniki o'tmagan. Sohibqironni yuzma-yuz olishuvlarda yengolmagan g'animlar endi behisob maqtov-u madhiyalar bilan uni borsa-

kelmas harbiy yurishning girdobiga tortmoqchilarmi?.. Bilmadim...

Shunday ulug' ota bilan sadoqatli o'g'ilning orasiga g'ubor solgan makkor fitnachilar Gavharshod begimning tasavvurida tog'larga tarmashgan qora bulutlarga o'xshardi. Bu bulutlarni tarqatib yuborish va haqiqiy ahvolni ochib ko'rsatish hozir hech kimning qo'lidan kelmaydigandek tuyulardi. Gavharshod begim qaynotasi uchun ham, eri uchun ham kuyinar, ayniqsa, Xitoy yurishiga bobosi bilan birga ketayotgan o'n bir yashar o'g'li Ulug'bekning taqdiridan xavotirlanib iztirob chekardi.

Bu kuyinish va xavotirliklar bejiz emas ekan. Harbiy yurish qish kirganda boshlandi. Amir Temur bahorgacha Xitoy chegaralariga yetib borish va ko'zlagan maqsadini yoz va kuz davomida amalga oshirib, yanagi qishgacha Samarqandga qaytish niyatida edi. Bunday reja Oltin O'rdaga qarshi yurishda tajribadan o'tkazilgan edi. Lekin aksiga olib o'sha yilgi qish behad qattiq keldi. Qalin qor va qattiq sovuqlardan daryolar shu darajada muz bilan qoplandiki, Sirdaryodan O'tror tomonga o'tganlarida ot va tuyalardan tashqari og'ir yuk ortilgan aravalar ham muz ustidan bemalol yurib bordi.

Qahraton qish chillasida Amir Temur mulozimlari va oila a'zolari bilan O'tror hokimi Berdibekning muhtasham mehmonxonasiga kelib tushdi.

Hozir Gavharshod begim o'qib o'ltirgan kitobning guvohlik berishicha, mislsiz qattiq sovuq boshlangani uchun ot-ulovalardan katta bir qismi talafot ko'radi, ko'pgina navkarlarning qo'l-oyoqlarini sovuq oladi, ba'zilarning burni va quloqlari sovuq urganidan uzilib tushadi.

Amir Temur, Bibixonim, Tuman oqo, nevaralardan Ulug'bek va Ibrohim Mirzolar kelib tushgan Berdibekning mehmonxonasida kechasi birdan yong'in chiqadi. Bu yong'in maxfiy josuslarning ishimidi yoki qattiq sovuqlarda haddan tashqari ko'p o't yoqqanlari ham sabab bo'ldimi, buni aniqlashga ulgurisholmadi. Yong'in paytida Amir Temur uchun bexatar joyda chodir o'rnatgunlaricha tungi qattiq sovuq va izg'irin shamol unga yomon ta'sir qildi. Isitmasi ko'tarilib, qattiq xastalanib qoldi. Shundan keyin hammaning xayoli So-



hibqironni davolash bilan band bo'ldi. Ammo muolaja kor qilmadi.

Sohibqiron o'lim to'shagida yotganda donishmand xotini Saroymulixonim va ishongan amirlaridan Shohmalik unga Shohruxni bir necha marta eslatdilar, ulkan mamlakatni idora qilish faqat shu o'g'ilning qo'lidan kelishini ishora qildilar.

Lekin qazo yaqinligini sezgan boshqa maslahatgo'ylar ham Amir Temur atrofida parvonaday aylanishmoqda edi. Ayniqsa, devonbegi Xo'ja Ahmad Tusiy, hakimi hoziq Fazlulloh Tabriziy, vazir Mas'ud Simnoniylar Sohibqiron olamdan o'tgandan so'ng Xalil Sultonni taxtga chiqarish tarafdori edilar. Ularning bu boradagi maxfiy maslahatlariga turonlik amirlardan Xo'ja Yusuf va Samarqandda dorug'a bo'lib turgan Arg'unshoh ham qo'shilgan edi.

Voqeaning tafsilotlarini Gavharshod begim keyinchalik Xalil Sulton bilan Shodimulk begimning o'zlaridan eshitdi. Chunki chigal kalavaga o'xshaydigan bu yashirin ishning bir uchi Xalil Sulton bilan Shodimulk begimning ishq-muhabbatlari el orasida gap-so'z bo'lib, Sohibqironning qahriga uchraganiga bog'lanar ekan.

Oddiy hunarmand oilasida o'sgan Shodimulkning ta'rifga sig'maydigan go'zalligi bor edi. Uni Amir Temurning nufuzli amirlaridan Hoji Sayfiddin o'z haramiga kanizak qilib oladi. Lekin Shodimulk yoshi ellikdan oshgan to'rt xotini bor Amir Sayfiddinga ko'ngilsiz edi. Tabiatan sho'x va dadil qiz bo'lgan Shodimulk bog'ko'cha devoridan mo'ralab, yigirma bir yoshli bahodir shahzoda Xalil Sultonga o'z go'zalligini ko'rsatadi. Unga hatto bir qizil olma uzatadi. Xalil Sulton Shodimulkka mahliyo bo'lib qoladi. Keyin oraga vositachilarni qo'yib, u bilan yashirincha uchrashadi. Ikki orada kuchli muhabbat paydo bo'ladi.

Xalil Sulton ham uylangan, bitta o'g'il ko'rgan, lekin shariat bo'yicha uning yana uylanishga haqqi bor edi. Shuning uchun Shodimulkni o'z nikohiga olmoqchi bo'ladi.

Ammo Shodimulkni o'z haramida saqlab yurgan Amir Sayfiddin bu hodisadan xabardor bo'lib qoladi. Uning Amir Temur bilan eski qardonligi bor ekan. Shundan foydalanib, Sohibqironning qabuliga kiradi.

— Nevarangiz Xalil Sulton mening haramimdagi juvonnini tortib olmoqchi! — deb shikoyat qiladi.

Amir Temur ishonchli odamlarini yuborib, taftish o'tkazganda, Shodimulk Xalil Sulton bilan yashirin bir joyda kechalari birga tunab yurgani ma'lum bo'ladi. Sohibqiron bunday nikohsiz birga tunashlarni «zino» deb yomon ko'rardi. Amir Sayfiddinga:

— Sizning haramingizdagi juvon yengiltak ekan, bizning nevara bilan zino yo'liga kirmishdir, — deydi.

Shunda Amir Sayfiddin:

— Unday bo'lsa, bu juvonnini o'limga buyursangiz ham men rozime! — deydi.

Shodimulkni o'limga hukm qilishlari mumkinligidan xabar topgan Xalil Sulton o'zini tarbiyalab o'stirgan momosi Bibixonimga borib iltijo qiladi:

— Hazrat momo, Shodimulk pok ayol, men uni nikohimga o'tkazmoqchimen, siz guvoh bo'ling!

— Amir Sayfiddin uni nikohidan chiqarganmi, yo'qmi?

— E, u odam Shodimulkni nikohlab olmagan ekan. Nikohida to'rt xotini bo'lib, uni shunchaki kanizak qilib saqlar ekan.

Boshqa odamning nikohiga o'tmagan ayol boshi ochiq hisoblanardi. Shuning uchun Bibixonim Shodimulkni Xalil Sultonning nikohiga o'tkazishga yordamlashdi. Keyin Amir Temurning kayfiyati yaxshi paytini topib, uning huzuriga kirdi:

— Hazratim, Amir Sayfiddin Shodimulkni hali nikohlab olmagan ekan. Boshi ochiq bo'lgani uchun Xalil Sulton uni nikohlab olibdir. Men o'zim borib ko'rdim. Bo'yida bo'libdi. Hademay ona bo'lgay.

Amir Temur jahlidan tushdi.

— Mayli, qonidan kechdik. Ammo bu juvon el-yurt orasida shuncha noloyiq gap-so'zga sabab bo'ldi. Xalil Sulton Xitoy yurishida mening eng ishongan sarkardalarimdan bo'lg'ay. Bu xotini uvruqqa qo'shilib, harbiy yurishda erining ketidan ergashmasin, Samarqandda qolsin. Agar ergashsa, kuni bitgay! Ana shuni Xalil Sultonga ham aytib, qattiq ogohlantiring.

Sohibqironning so'zini ikki qilib bo'lmas edi. Oshiqma'shuqlar bir-birlaridan bir kun ham ajrashishni istamasa-

lar-da, farmoni oliyga binoan Xalil Sulton Shodimulkni Samarqandda qoldirib, o'zi qo'shin bilan Toshkentga kelib tushdi. Bu yerdan ham sevgilisiga muhabbat maktublari yozib, maxsus chopar orqali yuborib turdi.

Xalil Sulton Shodimulkni o'linga buyurmoqchi bo'lganlardan ranjib yurganini uning tarafdorlari yaxshi bilar edilar. Bu dovyurak yigit hech kimdan — hatto olamni titratgan bobosidan ham tap tortmay sevgilisini himoya qilgani Xo'ja Ahmad Tusiy, Alaviddin Tabriziy, Mas'ud Simnoniy kabilarga juda yoqar edi.

Sohibqiron bilan doim shohmot o'ynaydigan, goho unga atayin yutqizib berib, juda ustalik bilan xushomadlar qiladigan, qiziq-qiziq hangomalardan aytib, podshohni kuldira oladigan Alaviddin Tabriziy ham shu guruhga kirar edi.

— Hazratim, siz hali bahodir yigitdaysiz, mana, hakimi xosingiz mavlono Fazlulloh ham aytsinlar, siz Xitoydan yana bir olamshumul g'alabaga erishib, sog'-salomat qaytgaysiz!

— Bo'lajak g'alabangiz faqirga tushimda ayon bo'ldi! — dedi Xo'ja Ahmad Tusiy. — Sizning oq fil minib Samarqandga qaytganingizni tushimda ko'ribmen!

Xos hakim Fazlulloh Tabriziy ham bu yashirin guruhning bashoratlarini tasdiqlab, keksa sarkardaning qahraton qish sovuqlarida harbiy yurishga chiqishiga tarafdor edilar.

Sohibqironning atrofida girdikapalak bo'lib yurgan bu odamlarning ko'ngillarida boshqa orzular bor edi. Bu yilgiday qattiq qishlarda tog'-u cho'llarda Amir Temurning harbiy yurishlariga qatnashib, mashaqqat chekkan paytlarida ular o'zlari tug'ilib o'sgan go'zal Eron shaharlari — Tabriz, Tus va Simnonlarni sog'inishardi. Qachonlardir bir vaqt o'z yurtlariga boylig-u martaba bilan qaytishni o'ylashardi. Qadimiy madaniyat o'chog'i bo'lgan Eronning temuriylar qaramog'idan chiqishini, yana mustaqil davlat bo'lishini istashardi. Albatta, bu orzu va istaklar tabiiy edi. Lekin bu orzularning amalga oshishi uchun Temuriylar saltanati parchalanishi va o'zaro urushlarda yana ko'p qonlar to'kilishi muqarrar edi. Shuning uchun bu orzular dil tubida pinhon saqlanar va ularni ro'yobga chiqarish uchun Amir Temur vafotidan keyin Xalil Sultonni taxtga

chiqarish Xo'ja Ahmad Tusiyning maqsadiga juda muvofiq kelardi.

Chunki Xalil Sulton yosh, birorta viloyatni ham boshqarib ko'rmagan tajribasiz yigit. Xalil Sulton faqat Turon va Turkistonga podsho bo'lish bilan qanoatlanishi mumkin. Uzoqdagi Tabriz-u Sherozlarni Samarqand taxtida o'ltirib boshqarish uning qo'lidan kelmasligi aniq.

Ammo Shohrux Mirzo Sohibqironidan keyin podsho bo'lsa, Turon bilan birga Xuroson va Eronni ham otasi kabi yaxlit bir saltanat doirasida ushlab turishga kuchi yetardi. Shuni yaxshi biladigan Xo'ja Ahmad Tusiy Amir Temur bergan vakolat bilan Hirotga borib, Shohrux Mirzoga yo'q joydagi ayblarni taqab kelgan va ota-bola orasiga ataylab sovuqlik solgan edi.

Mana endi O'trorda ham Xalil Sulton tarafdorlarining butun harakati Shohrux Mirzoni valiahd qilmaslikka qaratildi.

Suyukli nevarasi Muhammad Sulton bevaqt vafot etganda Sohibqiron bobosi juda qattiq musibat chekkan edi. Akasiga o'xshabroq ketadigan polvontaxlit Pirmuhammad Mirzoni bobosi bag'riga bosib yig'lagan edi:

— Endi sen akangning o'rmini olgin, bolam! Akangni valiahd qilaman degan edim. Endi iloyo sen akangning o'rniga valiahd bo'lgin!

Qulog'ini ding qilib bu so'zlarni eshitgan beglar begi Ahmad Tusiy yonidagi xos hakim Habibulla Tabriziy va Mas'ud Simnoniyga ma'nodor ko'z tashlab oldi. Shu uchovlari Sohibqironning bu so'zlarini dillariga mahkam tugdilar. Amir Temur O'trorda o'lim to'shagida yotganida ular Pirmuhammad Mirzoni Sohibqironiga eng iliq so'zlar bilan eslata boshladilar.

Ularning asl maqsadlari Xalil Sultonni valiahd qilish edi. Lekin Shodimulk voqeasidan keyin «Xalil Sulton valiahd bo'lsin» degan gapni Sohibqironiga mutlaqo aytib bo'lmasligini bilishardi. Shohruxni valiahd qilmaslik uchun Pirmuhammad Mirzo nomzodini qo'llab-quvvatlash vaqtdan yutish uchun qilinadigan bir chora edi.

Bu katta va qaltis o'yinda Xalil Sulton tarafdorlari xuddi shohmotdagi keyingi yurishlarni ham oldindan ko'rib dona surmoqda edilar. Chunki Pirmuhammad Mirzo hozir Kobul va Haybar dovonidan naridagi uzoq va iliq bir maskanda qishlamoqda edi. O'trordan jo'nagan chopar qish kunida Hindikush tog'idan oshib, Pirmuhammad Mirzoga o'lim xabarini yetkazguncha kamida yigirma kun o'tadi. U yoqda Pirmuhammad Mirzo qo'l ostidagi viloyatlarni ishonchli odamlarga topshirib, Samarqandga yetib kelguncha undan ko'proq vaqt ketadi. Bu orada Xalil Sulton Samarqandda taxtni egallab, mustahkamlanib oladi.

Ahmad Tusi va uning sheriklari Sohirqiron O'trorda o'lim to'shagida yotganda og'ir musibat paytida nevarasi Pirmuhammadga: «Endi sen qolding, bolam, marhum akangning o'rnini sen olasan, valiahd sen bo'lasan», degan so'zlarini unga bir necha marta muloyim qilib eslatdi.

Tusi Sohirqironning bir so'zlik odam ekanini yaxshi bilardi. O'sha og'ir musibat paytida Pirmuhammadga aytgan so'zlari Sohirqironning yodiga tushdi. Lekin Shohruxday azamat o'g'li turganda nevarani valiahd etib tayinlasa, adolatdan bo'lmasligini sezib, biroz ikkilandi. Shu payt Ahmad Tusiyning ishorasi bilan xos hakim mavlono Fazlulloh qo'lidagi sariq dori solingan oltin piyolani Sohirqironning labiga yaqinlashtirdi. Bir qo'li bilan bemorning bilagidagi tomiridan tutib, xavotirli tovush bilan dedi:

— Hayajonlanmang, hazratim, yurak urishingiz tezlashib ketdi. Shu dorini iching, yaxshi bo'ladi! Iching!

Ahmad Tusi ham:

— Iltimos, hazratim! O'tinamiz! Iching! — deb yalindi. Sohirqiron dorini ichayotganda sal yengil tortgandek bo'ldi. Lekin ko'p o'tmay bo'shahib ketdi. Hamma narsaga befarq bo'lib qoldi. Uning shu holatidan foydalanib, ikkovlashib dorini oxirigacha ichirishdi. Ahmad Tusi ta'zim qilib:

— Aylanay hazratimdan! — dedi. — Bu ulug' zot hech qachon aytgan so'zidan qaytgan emaslar. Hozir ham qaytmaydilar! Baxt qushi Pirmuhammad Mirzoning boshiga qo'nadi! Shundaymi, hazratim?

Sohirqiron o'ng qo'lini sal ko'tarib, tutila-tutula dedi:

— Shunday... So‘zim bitta!..

Endi xos hakim ham quvonib, Sohibqironga uch marta ta‘zim qildi.

Ko‘p o‘tmay eng nufuzli bek-u a‘yonlarni bemor yotgan xonaga chaqirdilar. Ularning orasida Bibixonim va shahzoda Ulug‘bek bilan Ibrohim yo‘q edi.

Shunda Bibixonim Xo‘ja Ahmadga yuzlanib, yig‘lab gapirdi:

— Tepamizda Xudo bor, janob Tusiy! Shohruxday o‘g‘il-lari turganda nevarani valiahd qilish shariatga to‘g‘ri kelar-mikin?

— Buni Sohibqiron bizdan yaxshi bilurlar. Sizni shahzo-dalar bilan keyinroq chaqiradilar, o‘zlari aytdilar.

«Aytmagan bo‘lsa ham bu makkor o‘zi to‘qib chiqaryapti!» degan so‘zlar Bibixonimning ko‘nglidan o‘tdi.

Kechki payt nufuzli beklar va sarkardalardan o‘n chog‘li kishini Sohibqiron yotgan xonaga boshlab kirdilar. Xonaga boshqa hech kim yaqinlashmasligi uchun qilich taqqan va nayza tut-gan o‘ntacha soqchini maxfiy majlis bo‘layotgan xona atrofiga qorovul qilib qo‘ydilar.

Yig‘ilganlar uchun Sohibqiron o‘zining so‘nggi qarorini zaif, past tovush bilan aytdi. Qattiq bir yo‘taldan keyin ovozi sal ochilib, Pirmuhammadga sodiq bo‘lishni, bir yoqadan bosh chiqarib ish olib borishni tayinladi. «Shoyad davlatni men kabi adl-u ehson bilan boshqarsalaring... mamlakat uzoq vaqt siz-larniki bo‘lg‘usidir...» — dedi.

Beklardan biri yig‘lab turib: «Sohibqiron hazratlari, jon kerak bo‘lsa biz o‘z jonimizni sizga bag‘ishlashga tayyormiz!» — dedi. Boshqalar ko‘zlariga yosh olib, bu so‘zlarga qo‘shildilar. Shoh-malik so‘zlashga ruxsat olib taklif kiritdiki, «Toshkent uzoq emas, hech bo‘lmasa Xalil Sulton kabi sarkardalarni chaqirsak, siz aytgan gavhar so‘zlarni o‘z quloqlari bilan eshitsalar» — dedi. Bu gapga Sohibqiron:

— Vaqt oz, — deb javob berdi. — Majol yo‘q! ... Ular ... yetib kelolmaslar. Ular bilan diydor ko‘rishish endi qiyomatga qoldi. Sizlar bilan hozir so‘nggi muloqot... Bihamdullo, diniy muloqotdan ko‘nglimga orzu qolmaydir. Magarkim farzand Shohruxnikim, hozir bu yerda ko‘rmadim...

Sohibqiron so‘nggi so‘zlarni armon bilan aytganini hamma sezdi. Uning Shohruxga aytadigan muhim gaplari bor edi. Shunday barkamol o‘g‘li turganda, uzoqda yurgan nevarani valiahd tayinlagani unga endi xiyol mavhum tuyulmoqda edi.

Bek-u a‘yonlar tarqagandan keyin Sohibqiron Ahmad Tusiyga:

— Endi shahzodalarni chorlang, — dedi. — Hazrat Bibixonim boshlab kirsin.

«Siz boshlab kiring» deyilmagan bo‘lsa ham Ahmad Tusiy muhim bir narsadan quruq qoladigandek, Bibixonim bilan shahzodalarni o‘zi boshlab kirdi.

Bibixonim bemorning oyoq tomoniga cho‘kkalab, kuyinib yig‘lagan holda:

— Mendin rozi bo‘ling, hazratim! — dedi. Sohibqironning ko‘zida ham yosh yiltiradi.

— Iloj qancha, Bibijon... taqdir shu ekan... Men sendin mingdan ming rozimen. Sen bilan o‘tgan umrimga shukrona aytamen.

Bu so‘zlardan Bibixonim o‘zini tutolmay, o‘kirib yig‘ladi. Nevarasi Ibrohim uni ikki qo‘lidan olib:

— Buvijon, og‘ir bo‘ling, jon buvijon! — deb yalinib tinchitdi.

Hushyor turgan nevarasidan Sohibqiron mamnun bo‘lib, Ibrohimning boshini siladi:

— Ilohim baxtli bo‘l, umring uzoq bo‘lsin! — deb duo qildi.

Sohibqiron o‘ng yonidagi Ulug‘bekka yuzlandi:

— Endi meni Ulug‘bek bilan yolg‘iz qoldiringlar. Shu nevaramga aytadigan gapim bor...

Ulug‘bek bobosi bilan yolg‘iz qolganidan keyin uning o‘ng tomoniga o‘tib, qulog‘ini bobosiga yaqin tutdi.

— Otangga o‘xshaysan, Ulug‘bek. Shohruxni sog‘indim. Qani hozir yonimda bo‘lsa?!

— Otam ham sizni jondan aziz ko‘radilar, hazratim!

— Ahmad Tusiy menda yomon shubha uyg‘otgan edi. Karaxt qiladigan dori ham berdimi nima balo?! Endi sal xayolim tinganday bo‘lyapti. Men hozir bir gap aytaman. Yaxshi eslab qol. Bir so‘z qoldirmay otangga borib ayt.

— Jonim bilan aytamen!

— Agar Pirmuhammad valiahdlikni eplasa durust, eplol-masa, hokimiyatni Shohrux qo‘liga olsin. Ko‘pchilik bek-u sarkardalar Shohruxga moyil. Men ham Shohruxga ishonaman, oq fotiha beraman. Faqat aql bilan, tadbir bilan qon to‘kmay ish ko‘rsin. Bu gaplarni otangdan boshqa hech kimga aytma. Xo‘pmi?

— Xo‘p, Hazrat bobojon!

Sohibqiron uning peshonasidan bir o‘pdi-da, so‘zida davom etdi:

— Shohrux menga «biror yil dam oling» deb to‘g‘ri aytgan ekan. Yetti yillik yurishdan keyin dam olmay, Xitoyga yurish boshlash... Buni menga otam rahmatli ham tushimga kirib eslatdi... Qalin o‘rmon orasida otim bog‘loqlik turgan ekan. Birdan otam paydo bo‘ldi. Indamay, men tomonga o‘girilib ham qaramay, egarlog‘lik otimning oldiga bordi. Ustidagi egar-jabdug‘ini yechib oldi-da, yo‘lning naryog‘iga eltib qo‘ydi. Keyin bir payt otam g‘oyib bo‘ldi. Cho‘chib uyg‘ondim.<sup>1</sup> Chodirda sovqotib yotibman. Tushundingmi? Otning egarini olib, yaydoq qilib ketgani «harbiy yurishga bormagin, yutqizasan!» deganlari ekan. O‘g‘lim Shohrux xuddi shu gapni menga muloyimroq qilib aytgan ekan. «Biror yil dam oling» deganda men unga piching qilgan edim. «Charchagan bo‘lsang, sen dam ol, Xitoyga men o‘zim qo‘shin tortaman» degan edim. Lekin Shohrux haq ekan! Haq! Sen buni otangga borib ayt. Har qalay, Shohrux o‘g‘lim oldida dilimni pokladim, buni ham borib ayt!

## TAQDIR TAQOZOSI

Yo‘lda qattiq charchagan Ulug‘bek ota-onasi bilan Bog‘i Safedga kelib tushdi. Hammomda yuvinib, toza kiyimlarini kiygach, dasturxon ustida ota-onasiga bo‘lgan hodisalarni bir-bir aytib berdi.

— Hazrat bobom menga muhim bir gap aytganini makkor Ahmad Tusiy sezdi. Shuning uchun bittasi Samarqandga



kelgunimcha og‘zimni poylab keldi. Buxoroda bo‘lsa, «tutib olib hibbs qilinsin» degan farmon bor ekan. Amu bo‘yigacha ta‘qib etib kelishdi-ku! Xayriyat, niyatlariga yetisholmadi noinsoflar!

— Yaratganga shukur, — dedi Shohrux. — Panohida asrapti.

— Bobom menga qarab: «Temuriylar sulolasini iloyo otang bilan sen davom ettiringlar! Omin!» — deb yuzlariga fotiha tortdilar.

Bu gaplarni eshitganda Shohruxning ko‘zidan yosh oqib ketdi, yuziga fotiha tortganda kafti ho‘l bo‘ldi. O‘zini tutolmay, o‘kirib yig‘lay boshladi:

— Voy otajonim-ey! Shunchalik tanti, ulug‘ odam endi yo‘q! Yer ostida! Voy, bunga qanday chidab bo‘ladi?!

Ulug‘bek ham otasiga qo‘shilib: «Voy bobojonim-ey!» deb yig‘lay boshladi. Ularning yig‘isiga Bibixonim qo‘shildi. Ular o‘sha kundan boshlab ko‘k kiyib, aza tutdilar. Yaqin-yiroqdan xesh-aqrabolar, yor-u birodarlar yig‘ilib, aza ochdilar.

Mahalla-ko‘ylarda, jome masjidлари oldida qo‘ylar so‘yilib, el-yurtga xudoyi oshlar tortildi.

\* \* \*

Vaziyat juda noziklashib ketdi. Valiahd Pirmuhammad Mirzo Balxga yetib keldi-yu, Shohrux Mirzo bilan maslahatlashmay, achchiq ustida bir elchini quyidagi qisqa maktub bilan Samarqandga — Xalil Sultonga jo‘natdi:

— Janob Xalilbek! Ulug‘ bobomiz Amir Temur ixtiyori-dagi valiahdlikni sizga kim berdi?

Albatta, bu achchiq so‘zlar Xalil Sultonning jon joyiga borib tegdi. U yanada achchiqroq bir javob yozib yubordi:

— Janob Pirmuhammadbek! Amir hazratlariga taxt-u mamlakatni bergan qodir egam endi menga ham inoyat qildi.

Bu javobni o‘qigan bek-u a‘yonlar Xalil Sultonning juda katta ketganini, o‘zini Amir Temurdan ham baland qo‘yib, hatto bobosining nomi-yu Sohirqironligini ham qalamga olmaganini ko‘rgandan keyin, «endi qirg‘in urush bo‘ladi!» deb, bexatar joy izlab qoldilar.

Shohrux Mirzo podshohlarga xos bir bosiqlik bilan o'z yerida salobat saqlab turar edi. Betaraf turgan tajribali sarkardalar eng bexatar joy deb Shohrux Mirzo mulkini tan oldilar va to'p-to'p bo'lib, Hirotga kela boshladilar.

Vaqt — adolatli hakam — Xalil Sultonga qarshi ishlayotganini ko'pchilik sezib turardi. Pirmuhammad Mirzo ham hozirgi temuriylar orasida eng munosib voris Shohrux Mirzo ekanini tan olmasdan, shoshqaloqlik qilmoqda edi. Undan boshqa odam bo'lsa, avval yoshi katta Shohrux Mirzoning maslahatini olishi kerak edi, keyin Xalil Sulton bilan olishsa, biron natija bo'lishi mumkin edi... Hozir u ham o'z kuchiga ortiq darajada ishonib, darhol qilich yalang'ochladi.

Ularning jangi qadimgi Nasaf yaqinida, daryo bo'yida bo'ldi. Ikkovining ham botir yigitlari ko'p edi. Lekin Pirmuhammad Mirzoning yigitlaridan bir necha ming kishi g'alabaga ishonmasligi tufayli urushmasdan, Xalil Sulton tomonga oq bayroq ko'tarib o'tib ketdi. Xalil Sulton iste'dodli sarkarda edi. Qo'shini ko'payganidan ustalik bilan foydalandi. Jang uning g'alabasi bilan tugadi. Pirmuhammad Mirzo Balxga chekindi.

Uning yonida yurgan vaziri Pir Ali Toz Balxning Hinduvon qal'asida «G'alaba bizniki bo'ladi!» deb katta ziyofat tayyorlatgan, ajoyib xonandalar va Hindistondan olib kelingan raqqosalarni bazmga chaqirtirib qo'ygan edi.

Alamzadalikdan ichishga o'rgangan Pirmuhammad Mirzo qal'aga qaytgandan keyin o'tkir mayi nobdan bir kosa ko'tardi. Shu bilan ziyofat va ichkilikbozlik tong otguncha davom etdi.

Bu voqeaning tafsilotlari Shohrux Mirzoning Balxdagi xufiyalari orqali o'sha kuni kechgacha Hirotga ham yetib bordi.

Samarqandga g'alaba bilan qaytgan Xalil Sulton Sohibqiron bobosi o'nlab yillar davomida yiqqan eng katta oltin xazinalarini ochtirdi. Jangda g'alaba keltirgan bek-u navkarlarga oltin tangalardan hovuchlab mukofot berdilar. Xazina juda katta ekan, shuncha oltin ulashsalar ham tagi ko'rinmas edi. Shundan keyin Shodimulk begim oltin tangalarga to'ldirilgan chelaklarni xizmatkorlarga ko'tartirib, baland qal'a devorining ustiga chiqdi. Pastda turgan va olqish aytayotgan minglab odamlarga oltin tangalarni xazon yaproqlariga o'xshatib socha boshladi.

Bu uning g'alaba shodiyonasiga atab el-yurtga ulashayotgan sovg'asi edi.

Bu g'alabadan keyin Xalil Sulton bosar-tusarini bilmay, hovliqib, aysh-u ishratga berildi. Davlat ishlarini xotini Shodimulk begim boshqardi, Bobo Turmush degan bir qarindoshini vaziri a'zam qilib ko'tardi. Bobo Turmush Balxdagi Pirmuhammad Mirzoning vaziri Pir Ali Toz bilan yashirin aloqa o'rnatdi. Bobo Turmushning qutqusi bilan Pir Ali Toz Pirmuhammad Mirzoni Balx qal'asida kechasi uxlab yotgan paytda xotini ham unga qo'shib qilichdan o'tkazdi. Bu qotillik evaziga Samarqanddagi Bobo Turmush Xalil Sulton nomidan Pir Ali Tozni Balx va Badaxshon hukmdori qilib ko'tardi.

Xiyonatkorlarga bunchalik erk berib qo'yilsa, temuriylar sulolasi halokatga uchrashi mumkin edi. Shuni sezgan Shohrux Mirzo Hirotdan Balxga Pir Ali Tozga qarshi qo'shin tortdi. Pir Ali Toz Balxdan Badaxshonga qochdi. Shohrux Mirzo uni ta'qib etib, Badaxshonga kelayotganidan xabar topgach, qotil Samarqandga borib, homiylaridan ko'mak so'radi. Xalil Sulton Pir Ali Tozni deb Shohrux bilan urushishni istamadi. Shundan so'ng Pir Ali Toz Afg'onistonda yashaydigan hazoralar tomonga qochib o'tdi. Shohrux Mirzo uni ta'qib etib, hazoralar ustiga qo'shin tortdi. Hazoralarga maxsus elchilar yuborib, Pir Ali Tozni tutib berishni talab qildi. Shohruxdan hayiqadigan hazoralar Pir Ali Tozning boshini kesib, terisiga somon tiqib, Shohruxning elchisiga berib yubordilar.

Shu tarzda Pirmuhammad Mirzoning qasdini olgan Shohrux Mirzo Balxga uning katta o'g'li Qaydu Mirzoni hokim qilib tayinladi. Endi Balx va uning atroflari ham Shohruxning qalamraviga kirdi.

Bu hodisa Shohruxning qudrati va nufuzini qanchalik oshirgan bo'lsa, Samarqandda turib Pir Ali Tozga yon bosgan Xalil Sulton va Bobo Turmushlarning obro'siga shunchalik putur yetkazdi. Xalil Sultonga toj-u taxtni olib bergan Amir Xudoydod Husayniy va Amir Arg'unshoh Bobo Turmushni hokimiyatdan chetlatishga urinib ko'rdilar. Ammo Shodimulk begim bunga yo'l bermadi, aksincha, Xudoydod bilan Arg'unshohning o'zlarini bir chetga surib tashladi. Xalil Sultonga ona o'rnida tarbiya ber-

gan Saroymulxonim sirli bir tarzda to'satdan vafot etdi. Unga Bobo Turmush zahar berib o'ldirgani haqida ovozarlar tarqaldi. Ular yana Amir Temurning xotirasini behurmat qilib, uning sadoqatli bevasi Tuman oqoni Shayx Nuriddinga majburan nikohlab berib, Samarqanddan chiqarib yubordilar.

Noroziliklar tobora kuchayib, oxiri katta bir guruh amirlar va navkarlar Xalil Sultonga qarshi isyon ko'tardilar. Samarqandning kun chiqish tomonida Sheroz degan qishloq yonida Xudoydod Husayniy boshliq isyonchilar Xalil Sulton qo'shinini tor-mor qilib, o'zini asir oldilar.

Asl voqeadan bexabar odamlar: «Shohrux Mirzo Xalil Sultonni urushda yengdi. Samarqand taxtini undan tortib oldi», degan mish-mishlarga ishonadilar. Vaholanki, Shohrux Mirzo Xalil Sulton bilan biror marta qilich yalang'ochlab jang qilgan emas, Xalil Sultonni taxtga chiqargan amirlarning o'zi Xudoydod boshchiligida uni taxtdan tushirdilar. Uning xotini Shodimulk begimni ham kanizlari bilan asir olishib, Shahrisabzga yetib kelgan Shohrux Mirzo huzuriga jazolash uchun yubordilar.

Amir Xudoydod tojsiz podsho bo'lish niyatida edi. Buning uchun marhum Muhammad Sultonning o'g'li bo'lgan o'n ikki yoshli bo'shanggina Muhammad Jahongirga Samarqand taxtini berib, davlatni uning nomidan o'zi boshqarmoqchi edi.

Shohrux Mirzo otasining poytaxtini Xudoydodga osongina berib, qarab turadigan anoyilardan emas edi. U qat'iyat bilan Xudoydodga qarshi hamla qildi.

Amir Xudoydod Shohruxga bas kelolmasligini sezib, Samarqandni jangsiz tashlab chiqdi va Xo'jand orqali Andijonga qochdi. U yerdan Mo'g'uliston podshosi Muhammadxonning huzuriga borib, ko'mak so'radi.

Bundan oldinroq Shohrux Mirzo Muhammadxonga elchilar va nodir sovg'alar yuborib, ikki orada yaxshi munosabat o'rnatgan edi. Xudoydodga o'xshagan bitta qochqin tufayli Shohrux bilan orani buzish Muhammadxonning manfaatiga to'g'ri kelmas edi. «O'z valine'matlariga shuncha xiyonatlar qilgan Xudoydod bizga vafo qilarmidi?» deb, uning boshini kesdirib, Shohruxga jo'natib yubordi.

Xalil Sulton Xudoydodning asoratidan qutulganidan keyin Turkiston tomonga qochib ketdi. U Shohrux Mirzo huzuriga borishdan qo'rqardi. Chunki Shohrux Samarqandda ko'p yovuzliklar qilgan Bobo Turmush bilan Amir Arg'unshohni qatl ettirganini Xalil Sulton eshitgan edi.

Shodimulk begim Shohrux Mirzo dargohiga keltirilganda o'limga hukm qilinishidan qo'rqib dag'-dag' titrardi. Gavharshod begim oraga tushib, shafosat so'radi:

— Hazratim, bu ayol qilgan gunohlari uchun ming bor uzr so'ramoqda! Bir lahza arzini eshiting!

Shohrux Mirzo Shodimulk begimni qabul qilganda bu chiroyli juvon yum-yum yig'lab, yergacha bosh egib iltimos qildi:

— Men gumrohlik qildim! Mayli, meni o'limga buyuring, podshohi olam! Lekin Xalil Sultonni qutqaring! Uning dushmani ko'p! Biron joyda o'ldirib ketmasin! Bechorani qutqaring!

Yosh ayol bosh egib shunday so'zlarni aytgandan keyin Shohrux Mirzo uni biron jazoga buyurishni o'ziga ep ko'rmedi.

Turkiston tomonlarda yurgan Xalil Sulton Dashti Qi pchoqdagi ko'chmanchi chingiziylarning quroliga aylanib qolish xavfi bor edi. O'sha tomonlarda yangi bir fitna qo'zg'alishiga yo'l qo'ymaslik uchun Shohrux Mirzo qo'shin tortib, Turkistonga bordi va Uzun Ota degan joyda Xalil Sulton bilan uchrashdi.

— Endi o'tgan ishga salavot, siz mening jigarimsiz! — deb, quchoq ochib Xalil Sulton bilan yarashdi.

O'zaro suhbatda Xalil Sulton otasi Mironshoh hukmronlik qilgan Isfahon va Ozarbayjon tomonlarga hokim bo'lib borish istagini bildirdi.

— Xoqoni Sa'id, Samarqandda biz elning nazaridan qoldik, bobomiz poytaxtiga Ulug'bek Mirzo munosibdirlar, — dedi.

Xalil Sultonning tantilik qilgani Shohrux Mirzoga yoqib tushdi. U Samarqand taxtini o'g'li Ulug'bek Mirzoga inoyat qildi-da, Xalil Sultonni xotini Shodimulk begim bilan Hirotga birga olib borib, bir necha kun mehmon qildi.

Podshoning iliq munosabatidan dillari yumshagan Xalil Sulton va Shodimulk begim Hirotning Bog'i Safedida